

SPORTDAGI RAQOBAT VA HAMKORLIK

**Ergashaliyeva Shirinxon Soyibjon qizi**

FarDU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport sohasida raqobat va hamkorlikning o‘zaro bog‘liqligi, ularning sportchilarning rivojlanishi, xalqaro aloqalar va sport musobaqalari samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Raqobat sportda eng yuqori natijalarga erishish vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, hamkorlik esa jamoaviy muvaffaqiyat, madaniy almashinuv va ijtimoiy birdamlikning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada sportning nafaqat musobaqaviy, balki ijtimoiy va diplomatik vosita sifatidagi o‘rnini ham yoritilgan.

Kalit so’zlar: raqobat, hamkorlik, musobaqa, sport diplomatiyasi, xalqaro aloqalar, jamoaviy ish, sportchilarning rivojlanishi, o‘zaro tajriba almashuvi, sport tashkilotlari

Аннотация

В данной статье анализируется взаимосвязь конкуренции и сотрудничества в области спорта, их влияние на развитие спортсменов, международные отношения и результативность спортивных соревнований. В то время как конкуренция рассматривается как средство достижения наивысших результатов в спорте, сотрудничество рассматривается как важный фактор коллективного успеха, культурного обмена и социальной сплоченности. В статье освещается роль спорта не только как соревновательного, но и как социального и дипломатического инструмента.

Ключевые слова: конкуренция, сотрудничество, соревнования, спортивная дипломатия, международные отношения, командная работа, развитие спортсменов, взаимный обмен опытом, спортивные организации

Annotation

This article analyzes the relationship of competition and cooperation in the field of sports, their impact on the development of athletes, international relations and the effectiveness of sports competitions. While competition is seen as a means of achieving the highest results in sport, cooperation is viewed as an important factor in collective success, cultural exchange and social solidarity. The article covers the role of sports not only as a competitive, but also as a social and diplomatic tool.

Keywords: competition, cooperation, competition, sports diplomacy, international relations, teamwork, Athlete Development, Mutual exchange of experience, sports organizations

Sport insoniyat tarixida nafaqat jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzining ifodasi, balki madaniy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Har qanday sport turi, xoh individual bo‘lsin, xoh jamoaviy, o‘z ichida ikki asosiy tamoyilni mujassam etadi:

-raqobat

-hamkorlik.

Ushbu ikki tushuncha o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida ular sport rivojida bir-birini to‘ldiruvchi asosiy elementlardir. Raqobat sportning ajralmas qismi hisoblanib, sportchilarni o‘z ustida ishlashga, yutuqqa intilishga undaydi.

Raqobat quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Motivatsiya manbai: Sportchi raqibidan ustun chiqishga intilar ekan, o‘z imkoniyatlarini oshiradi.
2. O‘sish va rivojlanish: Har bir musobaqa sportchi uchun tajriba maktabidir.
3. Adolatli kurash va intizom: Qoidalar asosida kechadigan raqobat sportchilarni halollik va sabotga o‘rgatadi. Masalan, futbol jamoalari o‘rtasidagi yirik musobaqlarda kuchli raqobat bo‘lsa-da, bu musobaqalar sportchilarning professional darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik esa ayniqsa jamoaviy sport turlarida asosiy rol o‘ynaydi. Har bir jamoa a’zosi o‘z vazifasini bajaribgina qolmay, jamoadoshlariga yordam berishi kerak. Jamoaviylik ruhini shakllantiradi. Yutuq – bir kishining emas, butun jamoaning mehnati ekanligini anglatadi. Ishonch va mas’uliyat: Hamkorlik sportchilar orasida o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Harakatlarning muvofiqligi sportda muvaffaqiyat kalitidir. Masalan, voleybol, basketbol, hokkey kabi sport turlarida har bir o‘yinchi o‘z rolini tushunishi va jamoasi bilan uyg‘un harakat qilishi zarur. Eng muhim jihat – sportda raqobat va hamkorlik bir-birini inkor qilmaydi. Aksincha, ular uyg‘unlashganida haqiqiy sport madaniyati vujudga keladi. Sportchilar o‘zaro raqobatlashar ekan, shu bilan birga raqibga hurmat bilan yondashadi, o‘z jamoasida esa doimo hamkorlikni ustuvor deb bilishadi. Olimpiya shiori – “Tezroq, balandroq, kuchliroq – birgalikda” – aynan ushbu g‘oyani ifodalaydi. Sportdagi raqobat va hamkorlik – bu ikki kuchli omil sportchilarning shaxs sifatida shakllanishi, jamoaviy rujni his etishi va jamiyatda sog‘lom raqobat madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sport nafaqat musobaqa, balki odamlarni birlashtiruvchi, do‘stlik, hurmat va birdamlikni targ‘ib qiluvchi kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov T., To‘xtayev I. (2019). Olimpiya harakati asoslari. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.
2. Raximov Q., Egamqulov M. (2021). Sport pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Saidov H. (2020). Fizik tarbiya va sport nazariyasi. Toshkent: O‘quv qo‘llanma, TDJTSU.
4. International Olympic Committee (IOC). (2020). Olympic Values and Education Programme. Lausanne: IOC Publications.
5. Gould, D., & Carson, S. (2008). Life skills development through sport: Current status and future directions. International Review of Sport and Exercise Psychology, 1(1), 58–78.